





## 2021- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **5219,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **119,0 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3483 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 213 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **1,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **66,7 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **6,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **23,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **24,8 %**) o'sishidir.



**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2020-yil	01.11.2021-yil	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3270</b>	<b>3483</b>	<b>106,5</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	841	888	105,6
Shahrisabz	138	148	107,2
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	147	151	102,7
Dehqonobod	147	165	112,2
Qamashi	176	185	105,1
Qarshi	380	407	107,1
Koson	270	305	113,0
Kitob	132	125	94,7
Mirishkor	83	84	101,2
Muborak	190	186	97,9
Nishon	114	122	107,0
Kasbi	148	165	111,5
Chiroqchi	199	222	111,6
Shahrisabz	117	115	98,3
Yakkabog'	188	215	114,4


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,5 %), Qarshi (11,8 %) va Koson (8,8 %) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1355,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 254,9 % ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 13,8 % punktga ko'payib, 26,0 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **58,3** % i yoki 2020- yilning yanvar- oktabr oylariga nisbatan **7,8** marta ko'p), G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **51,6** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,8** marta ko'p), Shahrisabz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **39,4** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **143,2** %) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payishi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **51,2 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **9,9** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etgan holda **2675,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,8 %** ni tashkil etdi yoki **1188,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **195,6** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5024,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,7 %** va **96,3 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.  
(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sinh sur‘ati, % da</b>	<b>Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>5219,8</b>	<b>119,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	1416,7	122,2	27,1
<b>Shahrisabz</b>	276,9	110,6	5,3
<i>tumanlar:</i>			
<b>G‘uzor</b>	617,1	152,3	11,8
<b>Dehqonobod</b>	104,5	86,1	2,0
<b>Qamashi</b>	124,0	97,2	2,4
<b>Qarshi</b>	313,4	86,4	6,0
<b>Koson</b>	291,5	77,9	5,6
<b>Kitob</b>	323,7	122,1	6,2
<b>Mirishkor</b>	112,0	89,9	2,1
<b>Muborak</b>	299,5	187,0	5,7
<b>Nishon</b>	184,6	110,5	3,5
<b>Kasbi</b>	192,3	121,3	3,7
<b>Chiroqchi</b>	531,4	171,8	10,2
<b>Shahrisabz</b>	135,8	113,3	2,6
<b>Yakkabog‘</b>	296,5	105,1	5,7



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-oktabr oylarida**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,0 % i yoki **3549,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**68,0**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **959,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.

**27,0 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1521,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.


**42,9**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1068,7** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 30,1 % ni tashkil etdi.

**30,1**


## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Qarshi sh. (1416,7 mlrd. so'm), G'uzor (617,1 mlrd. so'm), Chiroqchi (531,4 mlrd. so'm) hamda Qarshi (313,4 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 75 221-32-47